

**MADANIYAT VA TIL O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQADORLIK:
INTEGRATSIYALASHGAN O'QITISH JARAYONIDA TIL O'RGATISH VA
MADANIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH**

Bobojonova Zarina Rashidovna

O'zDTJU o'qituvchisi

Zarinabobojonova43@gmail.com

Normahmadova Sevinch Atamanovna

O'zDTJU talabasi

sevinch0809@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada madaniyat va tilning uzviy bog'liqligi, ularni o'qitish jarayonida integratsiyalashgan yondashuv orqali uyg'unlashtirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyatni ifodalash va tushunishning asosiy manbai ekanligi asoslab beriladi. Integratsiyalashgan yondashuv yordamida o'quvchilar nafaqat til ko'nikmalarini, balki madaniy savodxonlikni ham rivojlantiradilar. Ushbu yondashuvning afzalliklari, amaliy qo'llanishi va o'qituvchilar uchun takliflar keltirib o'tilgan. Maqola til o'rgatuvchi va o'rganuvchilar uchun samarali usul va yondashuvlarni o'z ichiga olgan.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, til o'qitish, integratsiyalashgan yondashuv, lingvistik kompetensiya, til va madaniyat aloqadorligi, madaniy savodxonlik, madaniyatlararo kompetensiya, o'quv jarayoni, o'rgatish usullari, amaliy ta'lim.*

Annotation: *This article analyzes the interdependence of culture and language, the importance of their harmonization through an integrated approach in the teaching process. It is argued that language is not only a means of communication, but also the main expression and understanding of culture. With the help of integrated approach, practical application and suggestions for teachers are presented. The article contains effective methods and approaches for language teachers and learners.*

Keywords: *culture, language teaching, an integrated approach, linguistic competence, the relationship between language and culture, cultural literacy, intercultural competence, educational process, teaching methods, practical education.*

Globalashuv davri til va madaniyatning o'zaro uyg'unligini tushunishni o'quv jarayonida muhim masalaga aylantirdi. Til inson muloqotining vositasi bo'lsa, madaniyat uning ichki mazmunini shakllantiradi. Ushbu maqola madaniyat va tilni birgalikda o'qitishning nazariy asoslarini va amaliyotdagi usullarini yoritib, o'quvchilarning lingvistik hamda madaniy savodxonligini oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuvning afzalliklarini tahlil qiladi.

Madaniyat va tilning o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud. Shuningdek, ular bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Har bir til o'ziga xos madaniyatni aks ettiradi va shu madaniyat orqali yashaydi. Masalan, o'zbek tilida "oshni tuz totar" degan maqol xalqning mehmondo'stligi va umumiy qadriyatlarini ifodalasa, ingliz tilidagi "Time is money" iborasi G'arb jamiyatlarida vaqtga bo'lgan munosabatni aks ettiradi. Tilni madaniy kontekstsiz o'rgatish tilni to'liq anglashni qiyinlashtiradi va kommunikativ to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan bir qatorda integratsiyalashgan yondashuvning mohiyati va ahamiyatini anglab yetish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan yondashuv til va madaniyatni birgalikda o'rgatish usulidir. Bu yondashuvning asosiy tamoyillari: Madaniy kontekstni o'rgatish: Til bilan birga milliy urf-odatlar, qadriyatlar va tarixni o'rganish. Madaniyatni kompetensiyani rivojlantirish: Turli madaniyatlarni tushunish va ularga hurmat bilan yondashish. Muloqotda moslashuvchanlikni oshirish: Haqiqiy hayotiy vaziyatlarda til va madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda muloqot qilish. Misol: Ingliz tili darsida talabalar faqat grammatikani o'rganmay, balki Britaniya va Amerika madaniyatiga oid odatlar, jumladan, choy ichish marosimi yoki Rojdestvo bayrami an'alarini o'rganishi mumkin.

Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta'minlab beradi:

1. Tilni chuqurroq tushunish: Madaniy kontekst tilni boyitadi va uning amaliy qo'llanilishini osonlashtiradi.
2. Madaniy savodxonlikni oshirish: Turli madaniyatlarni tushunish va qadrlash talabalarning global dunyoqarashini kengaytiradi.
3. O'rganish jarayonini qiziqarli qilish: Madaniyatga oid videolar, hikoyalar va rolli o'yinlar darslarni jonlantiradi.
4. Kommunikatsion ko'nikmalarni yaxshilash: Madaniyatni tushungan holda muloqot qilish qobiliyati talabalar uchun qulaylik yaratadi.

Amaliyotda integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash orqali ko'plab ijobiy natijalarga erishishga ko'maklashadi. Quyida bu borada bir nechta namunalar keltirib o'tilgan.

1. Dars jarayoniga madaniyatni kiritish: Madaniy mavzularda matnlar, filmlar va hikoyalarni tahlil qilish. Turli xalqlarning an'analari va qadriyatlarini taqqoslash.
2. Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar: Talabalarni turli madaniy muloqot vaziyatlariga tayyorlash (masalan, mehmon qabul qilish yoki xalqaro tadbirlarda suhbatlashish).
3. Guruh loyihalari va taqdimotlar: Talabalarga turli xalqlar madaniyatini tadqiq qilish va o'z topilmalarini taqdim etish imkonini berish.
4. Chet el madaniyati bilan muloqot: Til o'rganayotgan talabalar uchun chet elliklar bilan uchrashuv va suhbat tashkil qilish.

Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelish mumkin:

1. Resurs yetishmasligi: Madaniy materiallarni topish va o'qitish uchun moslashtirish o'qituvchidan vaqt va mehnat talab qiladi. Onlayn platformalar va bepul ta'lim resurslarini ishlatish orqali ushbu muammoni bartaraf etish imkoniyati mavjud.

2. O'qituvchilar malakasi: Hamma o'qituvchilar madaniyatni o'rgatishga tayyor emas. Fikrimcha, malaka oshirish kurslari va seminarlari tashkil qilish bu muammoni hal eta oluvchi yechimdir.

3. Vaqt cheklovlari: Lingvistik va madaniy mavzularni bir darsda qamrab olish qiyin. Shu sababli modulli ta'lim tizimini joriy qilish bu borada samarali yechim bo'la oladi.

Til va madaniyatni birga o'rgatish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishi bo'lib, talabalarni lingvistik bilimlar bilan birga madaniy savodxonlikka ega bo'lishga yordam beradi. Integratsiyalashgan yondashuv o'quv jarayonini boyitadi, talabalarning global dunyoqarashini shakllantiradi va ularni samarali kommunikatorlarga aylantiradi. O'qituvchilar va ta'lim tizimi ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli qo'llash uchun resurs va metodik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. New York: Pearson Education

2. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.

3. Hall, J. K. (2018). Essentials of SLA for Language Teachers. New York: Routledge.

4. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.

5. Ergashova S, Yadgarova, L, Ziyodulloeva M, Norova F, Yuldashova N. *The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills*/ Journal of Pharmaceutical Negative Results/Volume 13 /Special Issue 6/ 2022. <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>

6. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>